

HAKAM VA O'YIN ISHTIROKCHILARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR MUAMMOSI VA UNING HAKAMLIK SIFATI BILAN ALOQASI

Muxsinov Shohjahon Uyg'un o'g'li,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Hakamlik sifatini oshirish yo'llarini izlash va kasbiy takomillashtirish yo'llarini qidirish nuqtai nazaridan futbol o'yinlarini o'tkazishda hakamning o'yin ishtirokchilari (o'yinchilar, rasmiylar, o'yin rasmiylari, tomoshabinlar) bilan munosabatlari muammosi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: hakam, o'yin, hakamlik, qaror, o'zaro munosabatlar.

THE PROBLEM OF THE RELATIONSHIP BETWEEN THE REFEREE AND THE PARTICIPANTS OF THE MATCH AND ITS RELATIONSHIP WITH THE QUALITY OF THE REFEREE

Mukhsinov Shokhjakhon Uygun ugli,
PhD researcher

Annotation. In terms of looking for ways to improve the quality of refereeing and looking for ways of professional improvement, the problem of the referee's relationship with the participants of the game (players, officials, game officials, spectators) is considered when conducting football matches.

Keywords: referee, game, arbitration, decision, relationship.

ПРОБЛЕМА ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ФУТБОЛЬНОГО АРБИТРА И УЧАСТНИКОВ МАТЧА И ЕЕ СВЯЗЬ С КАЧЕСТВОМ СУДЕЙСТВА

Мухсинов Шохжахон Уйгун угли,
Базовая докторантура (PhD) Узбекского государственного университета физического воспитания и спорта

Аннотация. В плане поиска путей повышения качества судейства и поиска путей профессионального совершенствования рассмотрена проблема взаимоотношений судьи с участниками игры (игроками, официальными лицами, официальными лицами игры, зрителями) при проведении футбольных матчей.

Ключевые слова: судья, игра, арбитраж, решение, взаимоотношения.

IFAB o'yin qoidalari, hakamlik texnikasi, arbitraj texnikasining barqaror ko'nikmalarini yaxshi bilish hali hakamning maydonda mutlaq o'yin tizgini uning qo'lida ekanligini bildirmaydi, futbolchilar, jamoa rasmiylari, futbol mutaxassislari, inspektorlar, tomoshabinlar tomonidan uning harakatlariga ishonch bildirish uchun kafolat emas. Zamonaviy sharoitlarda o'yin ishtirokchilari bilan futbol maydonida o'zaro munosabatlar tizimini yaratish ko'nikmasi hakam uchun eng muhim sifat bo'lib, o'yinni ishonchli boshqarishga imkon yaratadi.

Bir vaqtning o'zida hakamning jamoa menejerlari bilan o'rnatilgan ishchi aloqalari, jamoalarning yetakchi futbolchilari, klublarning rasmiy vakillari bilan shaxsiy iliq munosabatlar, ular ishtirokida ushbu hakam uchun muvaffaqiyatli o'tgan avvalgi o'yinlardan kelib chiqqan holda, unga ma'lum ishonch va ko'mak zaxirasini beradi degan fikr bor bo'lgan.

Hozirgi kunga kelib barchasi o'zgarishga yuz tutgan. Yuqorida ta'kidlanganlar hakam uchun faqatgina ishonchli harakatlar, o'yin oldidan ijobiy psixologik holatni shakllantirish uchun muhim shart-sharoitlarga aylanadi. Hakamlik faqatgina o'yinda yuzaga keladigan daqiqalar bo'yicha «O'yin qoidalari» asosida qabul qilingan qarorlarning to'g'riligi emas, balki ushbu qarorlarni o'z ichiga olgan «aloqa san'ati», o'yinning barcha ishtirokchilarini boshqara olish san'atidir, shu jumladan tomoshabinlar, jamoa rasmiylari, o'yin rasmiylari (hakam yordamchilari, zaxira hakami).

Hakamlik «mexanizmi»ning vazifasi, hakam tomonidan o'yin holatlari bo'yicha ularning mezonlarini baholash tizimiga asoslanib qaror chiqarish, «O'yin qoidalari»ni taqqoslash orqali amalga oshiriladi, agar u hakamdan o'yin ishtirokchilariga va qarama qarshi yo'nalishda kommunikativ aloqalar bilan bog'liq bo'lmasa, faqatgina rasmiy jarayon bo'lib qoladi. Ushbu sababga ko'ra, zamonaviy hakamlikning asosiy omili nafaqat hakam tomonidan to'g'ri yoki noto'g'ri qabul qilish, balki ushbu qarorni o'yinchilarning ongiga to'g'ri yetkazish va hakam tomonidan o'yin ishtirokchilarining buni qanday qabul qilinishini baholashdir. Shu bilan birga, og'zaki muloqot, imo-ishoralar, o'yinchidan hakamga aks ettirilgan aloqa hakamga keyingi qarorlarini to'g'rilashga, o'yinni boshqarishning keyingi tizimini shakllantirishga imkon yaratadi.

O'YIN HAKAMLIGI DAVOMIDA QABUL QILINGAN BOSHQARUV QARORLARINING TURLANISHI

O'yinni nazorat qilishning o'zgacha xususiyati hakam tomonidan qabul qilingan nazorat va unga qo'shilgan qarorlarning ko'p vektorliligi deb ataladi. Hakamning faoliyati faqatgina futbol maydonida yuzaga keladigan vaziyatlarni baholashdan iborat emas. Bu tomoshabinlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, futbol mutaxassislarining e'tiborini bevosita jalb qiladigan jarayondir.

Uchrashuvlarni boshqarish tizimining asosini o'yinlar davomida hakam tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning to'rtta asosiy turiga bo'lish mumkin.

Bevosita futbol maydonida sodir bo'ladigan vaziyatlar bo'yicha qarorlar (boshqaruv).

O'yin atrofida (futbol maydoni yonida) sodir bo'ladigan vaziyatlar bo'yicha qarorlar (boshqaruv).

Hakam yordamchilari, zaxira hakami ma'lumotlariga tayanib qarorlar (vaziyatlarni boshqarish).

Tomoshabinlar auditoriyasini boshqarish (hakam tomonidan uning qaroriga qarab qabul qilingan tribunalarning ta'siri va bosimiga munosabat).

Hakam qarorlarining har xil turlari o'rtasidagi yaqinlikni o'yin rivojlanishining mumkin bo'lgan senariysi misolida ko'rsatish mumkin.

O'yin davomida hakam o'z e'tiborini maydonda yuzaga keladigan vaziyatlar bo'yicha qarorlarga (qarorlarning birinchi turi) to'liq qaratib, keyin bir nechta xatolarga yo'l qo'ysa, ushbu qarorlar jamoalardan birining zaxira o'rindig'ida juda hissiyotga to'la va noto'g'ri qabul qilinadi, jamoaning vakillari hakamning harakatlariga qattiq norozilik bildiradilar, lekin hakam ularning bunday e'tirozlariga munosabat bildirmaydi (qarorlarning ikkinchi turi).

Rasmiylarning harakatlariga hakamning e'tiborini zaxira hakami qaratdi, uni tinglaganidan so'ng hakam o'yinni davom ettiradi (qarorlarning uchinchi turi). Rasmiylarning, o'z rahbarlarining qo'llab-quvvatlashiga ega bo'lgan o'yinchilarning his-tuyg'ulari tribunalarga ko'chadi. Uchrashuvdagi vaziyat borgan sari qiziydi, raqib muxlislar guruhlarini o'rtasida ziddiyatga vujudga keladi (to'rtinchi turdagi qaror). Yuqoridagi misol bir qancha xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Hakamlik turfa o'lchovli bo'lib, hakamning diqqat va nazorati to'g'ridan-to'g'ri maydonda va uning yonida sodir bo'ladigan voqealarda bo'lishi shart.

Maydon va uning chetidagi voqealarni boshqarish bo'yicha hakamning harakatlari va qarorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'yinning barcha ishtirokchilari va tomoshabinlarga ta'sir qiladi.

Hakam qarorlaridan eng muhimi o'yinni to'g'ridan-to'g'ri maydonda boshqarish bilan bog'liq qarorlardir. Hakam tomonidan o'yinni nazorat qilishning butun tizimining ishlashi ularning to'g'riligini, aniqligi va o'z vaqtida qabul qilinishiga juda bog'liq. Biroq, agar hakam uni o'z vaqtida hal qila olmasa yoki oldini ololmasa, nizoli vaziyat yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa «keskinlik zonalari» ni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

HAKAMLIK VA O'YINNI BOSHQARISHNING «MEXANIZMI»

O'yinni boshqarish jarayoni hakamlikning «mexanizmi» ning ishlashi bilan uzviy bog'liqdir, uning mohiyati 1-rasmda keltirilgan.

Bunday sxemalar o'yin davomida doimiy ravishda yuzaga keladi va har safar hakamni «mexanizmini» ishga tushirishga majbur etadi. Farq faqat epizodning mohiyati va mazmunida, hakam tomonidan qabul qilingan qarorlarda, shu jumladan mumkin bo'lgan intizomiy choralarda aks etadi. Maydonda sodir bo'layotgan voqealarni mezonlarni baholash prizmasi orqali har bir holatni uzluksiz ravishda tahlil qilish, hakamning o'yinchidan hakamga boradigan fikr-mulohazalarini baholash bilan boshqaruv harakatlari, keyingi nazoratni saqlab qolish va o'yinning keyingi lahzasini idrok etish va baholashga tayyor bo'lish o'zgarishsiz qoladi.

Aslida, hakamlik «mexanizmi» ni quyidagi misolda tasavvur etsa bo'ladi.

Maydonda qoidalarni buzish bilan bog'liq vaziyat vujudga keladi (I).

Hakam nima bo'layotganini (II) kerakli mezonlardan foydalangan holda tahlil qiladi, misol tariqasida, raqibning orqasidan turtish amalga oshiriladi, bunga yo'l qo'yilmaydi (III). Hakam hushtak bilan o'yinni to'xtatadi, qoidabuzarlik joyini imo-ishora bilan belgilaydi, o'yinchini jarima zarbasi bilan jazolaydi, unga og'zaki ogohlantirish beradi (IV). «Devor» ni kerakli nuqataga surib, hakam vaziyatni nazoratga oladi: to'p, «devor», darvoza, o'yinchilarning joylashuvi, yordamchining pozitsiyasi va boshqalar. To'p darvozabonning qo'lida bo'lganidan so'ng, hakam o'yinning keyingi bosqichini (VI) tahlil qiladi.

Hakamning shaxsiy xususiyatlariga, uning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qarab hakamlik «mexanizmi» faoliyatining ravshanligi, qarorlarni boshqaruv san'ati, muloqot san'ati bilan birlashtirish, o'yinning barcha ishtirokchilari bilan tegishli darajada munosabatlar tizimini o'rnatish bilan bevosita bog'liqdir.

HAKAM VA O'YIN ISHTIROKCHILARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jamoaviy sport turlarida hakamlikning o'ziga xosligi hakamning o'yinchilar, jamoa rasmiylari va tomoshabinlar bilan bevosita aloqada bo'lishidir. Hakamning har qanday qarori qarama qarshi fikr-mulohazalarga sabab bo'ladi, bu nafaqat to'g'ridan to'g'ri murojaat qilingan shaxsdan kelib chiqishi, masalan, o'yinchiga ogohlantirish berish nafaqat futbolchining hakamga, balki jamoa rasmiylari va tomoshabinlarning ham hakamga to'g'ridan-to'g'ri javob qaytarishiga olib keladi. Bunday munosabatlarning ko'pligi hakamning o'yinning barcha ishtirokchilari bilan munosabatlari majmuini shakllantiradi.

O'yin ishtirokchilari bilan munosabatlar faqat bevosida «O'yin qoidalari» asosida qaror qabul qilish bilan chegaralanmaydi, balki turli xil harakatlar (imo-ishoralar, qarashlar, aloqa usullari) to'plamini anglatadi. Zamonaviy tushunchada hakamning professionalligi qabul qilingan qarorlarni kerakli darajada munosabatlar tizimini o'rnatish bilan uyg'unlashtirish, musobaqaning barcha ishtirokchilari o'z harakatlarining to'g'riligini yetkaza olishga intilishdan iborat.

Misol ta'rifasida, hakamning o'yinchilar bilan aloqalari bir xususiyatga ega. «O'yin qoidalari» tomonidan unga berilgan hakamlik maqomi o'yinchilarning maqomidan ustundir, shuning uchun avvaldan ularning o'zaro munosabatlari teng bo'lishi ilojisiz. Bu ular orasida ma'lum bir masofa saqlanishi kerak ekanligini anglatadimi?

Masofa saqlanishi kerak albatta. Ammo, hakam va o'yinchilar o'rtasidagi munosabatlarning uzilishi va tushunmovchilik boshlanadigan chegarasi nima va hakamga o'z «Men»ni saqlab qolishga imkon beradigan minimal miqdor hozirgi vaqtda hakamning o'yin ishtirokchilari bilan munosabatlari muammosini ishlab chiqish yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Bu yerda hakamning obro' qozonish jarayoni, unga va uning qarorlariga barcha o'yin ishtirokchilarining, shu jumladan tomoshabinlarning ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi, bu hakam tomonidan adekvat harakatlarda amalga oshiriladigan maxsus xulq-atvor impulslarining namoyon bo'lishi bilan bog'liq.

O'yin vaqtida ayrim hakamlar o'yinchilar, jamoa rasmiylari bilan tushunmovchiliklar va nizolar yuzaga kelishi mumkin, ular tomoshabinlar tomonidan bosimlar qilinadi, boshqalari obro'li, o'ziga ishongan bo'lgani va o'yin ichida «yashagani» sababli ba'zida ular yo'l qo'ygan xatolar kechiriladi, chunki ushbu hakamlar ishonch qozongan bo'lдилar.

Yuqoridagilar ikkita an'anaviy hakamlar turi haqida fikr beradi. O'yinni nazorat qilishning avtoritar usullarini birinchi navbatda mulohazada, o'yinchilar bilan aloqada ishlatadigan, o'yinning nozik tomonlarini, uning nafasini his qilmaydiganlar o'yin ishtirokchilari va tomoshabinlar tomonidan muqarrar ravishda rad etiladilar.

Yuqori shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lgan, o'zligiga ega bo'lgan, o'yinchilar, jamoa rasmiylari, tomoshabinlar bilan munosabatlarni o'rnatishga qodir bo'lgan hakamlar, har qanday o'yin natijalariga qaramay, o'z ishlari haqida ijobiy taassurot uyg'otadilar.

Ushbu hakamlar uchun futbolchilarga futbol maydonida o'z imkoniyatlarini to'liq ishga solishda yordam berish juda muhimdir. Bunday hakamlarning harakatlari shiori «o'yinchilarni chegaralamang!» Masalan, futbolchilarga keskin sport kurashini taqiqlamaslik, aksincha ularga o'z imkoniyatlarini ochib berish, o'yinchilarni, ularning maydondagi harakatlarini tushunish, shu bilan birga o'yin qoidasiga qarshi usullarni qat'iy ravishda cheklash uchun obdon o'ylangan qarorlar orqali yordam berishdir. Gap o'yinni o'tkazishning shunday taktik sxemasi va maydondagi voqealarni boshqarish uslublarini tanlash haqida ketmoqda, unda hakam va o'yin ishtirokchilari o'rtasida yuzaga kelgan «ishlab chiqarish» munosabatlari o'yin imidjini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

Hakamlarning tomoshabinlar bilan munosabatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hakamlar tomoshabinlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarishga imkon beradigan harakatlarni deyarli bajarmaydilar, biroq ularning qarorlari tribunalardagi vaziyatni u yoki bu darajada tartibga solishi mumkin.

O'tmishda yetakchi hakamlardan biri o'yin oldidan o'z yordamchilariga shunday ko'rsatma bergan edi: «agar siz kichik va ahamiyatsiz ko'rinadigan qoidabuzarliklar uchun men mezbonlarga bir nechta jarima zarbalarini berayotganimni ko'rsangiz, tomoshabinlar tobora kuchayib borayotgan norozilikni ko'rsata boshlaydilar, sizga yaqin bo'lgan keyingi shunga o'xshash vaziyatda menga bayroqcha yordamida signal berishga harakat qiling, shundan keyin men sizni hushtak bilan qo'llab-quvvatlayman».

Tajriba va professional ichki sezgi hakamga tribunalarning reaksiyasini hisobga olish zarurligini bildirdi, buning uchun u yordamchilari signallari orqali «o'yin qoidalari» ning «kichik» buzilishlarida oldingi barcha qarorlarining to'g'riligini tasdiqladi va shu bilan tomoshabinlar ehtirolarni tartibga soldi.

O'yinlari davomida hakam va barcha o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar muammosining tahlili shuni ko'rsatdiki, hakamlilik sifatini oshirish usullaridan biri hakam tomonidan ular bilan zarur aloqa munosabatlarini o'rnatishdir.

Shu munosabat bilan futbol hakamlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun hakamlarning o'z jamoasi a'zolari, futbolchilar, jamoa rasmiylari, ommaviy axborot vositalari vakillari, tomoshabinlar bilan munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha barcha masalalarni batafsil ishlab chiqish zarur.

Aadabiyotlar.

Артиков А.А. Методика совершенствования целевой точности технических приемов квалифицированных футболистов. Автореф. дис. док. философии (PhD) Чирчик 2018.-57 С

Грец, Г.Н. Проблемы футбольного арбитража в России как профессии и предложения по их решению / Г.Н. Грец, А.Д. Будогосский, Е.А. Турбин // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. – 2016. – № 6 (136). – С. 33-38.

Будогосский, А.Д. Особенности менеджмента в судействе соревнований по футболу «Communication Skills» / А.Д. Будогосский, Е.А. Турбин // Вестник спортивной науки. – 2008. – №1. – С. 69-71.

Абидов Ш.У. Ёш футболчиларнинг ўқув машғулот жараёнини ташкил қилиш ва режалаштириш. Услубий тавсиянома. Т., ЎзДЖТИ. 2011. – 38 Б.